

O'ZBEKISTON TURIZIM SALOHIYATINI OSHIRISH

Tojixonov Mansurxon Usmonxon o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro Universitet talabasi
TOUP-502U gurux

Annotation: Darajalarini aniqlash turizmni rivojlantirish tizimining diqqatini turizm resurslaridan iste'molchiga yo'naltirish va turizm salohiyatini mustaqil boshqaruv mexanizmini yaratishni talab qiluvchi dinamik hodisa sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Jamiyatdagi aholi ma'lum bir qatlamining turizm sohasi va uning turlari, respublikada turizmning faoliyati, undagi islohotlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, shu sohaning rivoji va kishilar ma'naviyatini yuksaltirishda bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: turizm salohiyati, turizm, O'zbekiston, turizmni rivojlantirish, turizm resurslari, iste'molchilarning xulq-atvori.

Аннотация: Определение уровней позволяет сместить фокус системы развития туризма с туристических ресурсов на потребителя и рассматривать туристский потенциал как динамическое явление, требующее создания независимого механизма управления. Он служит инструментом развития этого сектора и повышения морального духа людей.

Ключевые слова: туристический потенциал, туризм, Узбекистан, развитие туризма, туристические ресурсы, потребительское поведение.

Annotation: Determining the levels allows us to shift the focus of the tourism development system from tourism resources to the consumer and consider tourism potential as a dynamic phenomenon that requires the creation of an independent management mechanism. It serves as a tool to develop the sector and improve the morale of the people.

Key words: tourism potential, tourism, Uzbekistan, tourism development, tourism resources, consumer behavior.

KIRISH

Hozirgi zamonomizdagagi iqtisodiyoti rivojlangan barcha davlatlarda har bir soha, tarmoq va yo'nalishlarga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, ular mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi, aholi turmush darajasini yaxshilanishi va boshqa bir qancha omillarga ma'lum bir ulushda hissa qo'shib, ta'sir ko'rsatmoqda. Turizm sohasi xizmat ko'rsatish sohasini eng katta tarkibiy qismidir. Turizm -bu sayohat qilishning bir turi bo'lib, unda kishilar dam olish, biznes qilish, boshqa xalqlar madaniyatini o'rganish kabi boshqa maqsadlar uchun odatiy bo'lgan muhitdan tashqaridagi joylarga sayohat qilish tushuniladi. Hozirgi shiddatli zamonda turizmning bir qancha turlari

mavjudJumladan, rekreatsion turizm, biznes turizm, ekskursiyaviy turizm, ekstremal turizm, madaniy va ma'rifiy turizm, VIP turizm, ya'ni qimmatli dam olish maskanlariga tashrif buyurish, ekoturizm , tog' turizmi, etnik turizm, dengiz turizmi va boshqalar. Turizmninmg har bir turidan o'ziga yarasha shiddat zavqini, o'ziga ishonch hissini, jasorat va ma'naviyat kuchini, qiyinchiliklarni yengib o'tish va boshqa o'ta maroqli tarbiyaviy, ibratli his -tuyg'ularni olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turizm mamlakatdagi bir qator mintaqalarning iqtisodiyoti va madaniyatiga faol ta'sir ko'rsatishdi. Masalan, turizmni faoliyat ko'rsatishi tizimining, sayyoohlarga savdo, ijtimoiy-maishiy, madaniy, tibbiy xizmat ko'rsatishning rivojlanishi bilan yaqindan bog'liqdir.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilyshning obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishida turizmning ahamiyati obyektiv ochib berildi. Bugungi kundagi turizmning rivojlantirish bosqichlari mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Bugungi kunda Turizm sohasidagi qonunlar va Turistik xizmatlar uchun xarajatlar nomli qarorlar metodologik jihatdan olindi.

Yurtimizda boy ma'naviy-madaniy merosi, turli-tuman tarixiy-arxeologik ob'yektlari qulay tabiiy-iqlim sharoiti, hududimizda har qanday landshaftlarini ko'rishimiz mumkin, islom dunyosida tan olingan allomalarining maqbaralari, tabarruk qadamjolar ko'p. Ammo mamlakatimiz turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'la turib, uzoq yillar bu imkoniyatdan to'liq va samarali foydalanimadi. Prezidentimizning turizmga oid turli xil hujjatlar qabul qilingani davlatimizning turizm rivojiga yuksak e'tiboridan dalolat bo'ldi. Ushbu hujjatlar bilan sohada yig'ilib qolgan muommolarni hal etish, turizm salohiyatini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi, ichki turizmni yanada rivojlantirishga ko'plab imtiyozlar, yengilliklar berildi. Shavkat Mirziyoyev turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini alohida ta'kidlab, mamlakatimizda bu boradagi ahvol va sohani rivojlantirish bo'yicha ko'rيلayotgan choralar samaradorligini birma-bir tahlil qildi. Turistlar yetarlicha sayohat qilish o'rniga ichki ishlar idoralarida sarson bo'layotgandi, ularga yetarlicha sharoit yaratilmayotgandi, "O'zbekiston havo yo'llari" sustkash edi, aeroportlarda eng kichik jihatlar turistlar kayfiyatiga salbiy ta'sir qilayotgan edi, mehmonxona soni kam edi va ko'rsatilayotgan xizmat a'lo darajada bo'lmayotganini, bir so'z bilan aytganda, turizm sohasida ulkan imkoniyatlar bo'lismiga qaramay, O'zbekistonning turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va uning darjasasi globallashuvva keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga mos kelmasligini Prezidentimiz tanqid qilib ularga tegishlicha vazifalar belgilagan edi. Bugungi kunda bularning samarasini ko'rayapmiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda turizmga alohida e'tibor berilib, o'sib borish tendensiyalari amalgalashirilmoqda. Shu asosda, ziyorat turizmi, madaniy turizm, tibbiy turizm, gastronomik turizm, yoshlar turizmi, ekoturizm, etnik turizm, sport turizmi va boshqa turizm turlari

o'z faoliyatini olib bormoqda. Madaniy va ziyorat turizmlarini rivojlanishida qadimiy tarixga ega bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarimizdagi tarixiy obidalar, me'moriy, diniy va madaniy yodgorliklar hamda respublikamizdagi boshqa zamonaviy diqqatga sazovor joylar bilan tanishtirish orqali ularga madaniy-ma'rifiy ma'lumotlar berish asos bo'lib xizmat qilgan. Respublikamizga kirib kelayotgan chet ellik touristlarning 76 foizi Buxoro, Samarqand, Xorazm va Toshkentga tashrif buyurishga qiziqsa, qolgan 24 foizi Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'onada vodiysi viloyatlariga sayohat qilishadi.

O'zbekistonga so'nggi 2020-yilda pandemiya sharoitida xorijiy davlatlardan turistik maqsadda tashrif buyurgan chet el fuqorolari soni 1,5 million kishini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 77,7 foizga kamaygan. Respublikamizga tashrif buyurgan xorijlik fuqorolarning asosiy safar maqsadlari qarindoshlarini yo'qlash bo'lib, 87,8 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, dam olish, davolanish, xizmat yuzasidan, o'qish uchun tashrif buyurganlar ham salmoqli qismni tashkil etadi. Ular quyidagi davlatlardan tashrif buyurishadi: Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston, Pokiston, Ukraina, Germaniya, AQSH, Yaponiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Isroil, Eron kabilardir. O'zbekistonda xorijiy sayyoohlarning asosiy qismi chegaradosh qo'shni mamlakatlar hissasiga tog'ri keladi. O'zbekistonga boshqa mamlakatlardan tashrif buyurgan sayyoohlarning o'rtacha xarajati 2018-yildagi holat bo'yicha quyidagilarni tashkil etgan: Qozog'iston - 158,3 dollar; Qirg'iziston - 99,3 dollar; Tojikiston - 60,4 dollar; Turkmaniston - 104,6 dollar; Boshqa MDH mamlakatlari - 635,6 dollar; Uzoq xorijiy mamlakatlar - 709,4 dollar. So'nggi yillarda turizm salohiyatini kompleks ravishda rivojlantirishda yo'naltirilgan ko'plab qarorlar, qonunlar, farmonlar, konsepsiylar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida "gi qarori, " Turizm to'g'risida "gi qonun yangi tahriri, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-avgustdaggi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi Farmoni va boshqa shu kabi huquqiy me'yoriy hujjatlar qabul qilingan.

O'zbekistonda 2019-yil yakuni bo'yicha turizmning barcha sohasi doirasida xizmat ko'rsatishdan 1,3 milliard dollar mablag' tushgan. Ushbu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 30 foizga ko'p. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, O'zbekiston turizmida 260 ming kishi faoliyat yuritmoqda. Aholining farovon yashashi, ehtiyojlarini qondirilishi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayot kechirish darajasiga mamlakat hududiga kirib kelayotgan pul mablag'lari ham ahamiyatlidir.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi, aholini turmush kechirish sharoitlarini yaxshilanishida, xalqaro maydonga chiqishi va unda munosib o'rin egallashida barcha sohalar bilan bir qatorda turizm sohasini ham o'rni salmoqlidir.

Hozirda kishilar orasida turizmni keng targ'ib qilish maqsadida yurtimiz teleekranlarida O'zbekiston turizm salohiyatini, turli xil qadamjolarini, turistik maskanlarni, markazlarni, yurtimizning g'aroyib, afsonaviy joylarini kecha-yu kunduz targ'ib qiluvchi, sayohatga doir turli xil ko'rsatuvarlar namoyish etilmoqda, turizmni rivojlantirish bo'yicha subsidiyalar va boshqa rag'batlantirish vositalari ham qo'llanilmoqda. Xorij davlatlardagi elchilar mamlakatimiz, milliy qadriyatlarimiz targ'ibotchilari bo'lishi, bunga chet eldag'i vadandoshlarimiz ham hissa qo'shish zarur.

XULOSA: O'zbekistonning umumiyligi turistik salohiyati 3,37 million kishini tashkil etadi. Ammo bu raqamlar adashmasligi kerak, chunki ular mamlakatga shaxsiy maqsadlarda kirib kelayotgan fuqarolar oqimining ko'pligini aks ettiradi, chunki ko'p millionlab o'zbek oilalari ayni paytda boshqa mamlakatlarda yashab, O'zbekistonga o'z qarindoshlari va do'stlarini ko'rish uchun kelishadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning jahondagi sayyohlik salohiyati, ulkan resurslarga qaramay, past darajada qolmoqda, bu esa mamlakatning sayyohlik yo'nalishi sifatida mashhurligi pastligi bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib, birinchi va ikkinchi darajali turizm salohiyatini taklif etilayotgan tasnifga muvofiq rivojlantirish masalasi O'zbekistonda turizmni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarga kelgan va ketgan shaxslar. 25.01.2021. www.stat.uz
2. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifikatga qo'shgan xissasi. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
3. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'larning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
4. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili/Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
5. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
6. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.